

USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INNOVATION
IN THE MODERN
EDUCATION
SYSTEM



25 APRIL
2024 YEAR

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org

Ibrohimova Zilola Anvarjon qizi "SAB'AI SAYYOR" DOSTONI. HIKOYALAR TAHLILI.	
Sharopova Husnidaxon ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING G'OYAVIY BADIY XUSUSIYATI	576
Леи Донг Бухарова Фарида Мирхаликовна "НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА"	582
Jamilova Aziza Ulug'bekovna TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	586
Saidova Xurshida Faxriddin qizi MUSTAQILLIK DAVRI AYRIM QISQARTMA OTLARNING TARKIBI VA MAZMUNI HAQIDA	590
Safoyeva Farangiz Obidjon qizi PHONETIC, PHONOLOGICAL, GRAMMATICAL, SEMANTIC, ETYMOLOGICAL, LEXICAL AND STYLISTIC PECULIARITIES OF COMPARED LANGUAGES	596
Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi DUNYO TILLARI	608
Qurolov Doston Iloxomiddin o'g'li CHIRCHIQ-OHANGARON HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQLIMIY OMILLAR.	611
A'zamov Valixon Fayzullayevich PROBLEMS AND SOLUTIONS OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES	617
Amonova Feruza Sadullaevna NEW BUKHARA - THE INDUSTRIAL CITY OF BUKHARA EMIRATE	621
Xushboqova Melixol Odiljon qizi Muzaffarova Sevinch Nizomiddin qizi INGILIZ TILIDAGI BA'ZI OMONIM SO'ZLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR	625
Baxriddinova Dilynora Sharifjon qizi Abdug'aniyeva Moxiraxon Alijon qizi IKKILAMCHI POLIMER CHIQINDILARDAN UNIVERSAL QURILISH YELIMINI OLISH TEXNALOGIYASI	628
I.N.Niyozova	634

U.Shodibekov RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH	
Muxamedov Sulaymon ISHSIZLIK, UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI	639
Giyazova N.B. Doniyorov Mirshod DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI:NAZARIYA VA AMALIYOT	644
Giyazova B.B Hamidov Fozilbek MAMLAKATIMIZDA TASHQI SAVDONI ERKINLASHTIRISH VA TO'LOV BALANSI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	650
Khurshida Ashurova EXPLORING NEOLOGISMS IN YOUTH PRESS: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH	656
Tilavoldiyeva D.X Habibullayev N.U Ro'zimatov K.X ZAMONAVIY BIOTEKNOLOGIYANING TARAQQIYOT YO'LI	660
Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi Ergasheva Dilrabo Allanazarovna BADIIY MATNDA DIALEKTAL LEKSIKANING QO'LLANILISHI(TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI MISOLIDA)	664
Xongeldiyeva Sevvara Shuxrat qizi Umurqulov Bekro'lat MONOLOGIK VA DIOLOGIK NUTQ	667
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли ОЗИҚ-ОВҚАТДА ХАЙВОН ВА ЎСИМЛИК ЁҒЛАРИНИ ФОЙДАЛАНИШДА ТЎҒРИ ТАЪМИНЛАШНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ	672
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли УРУҒЛАРНИ ТОЗЛАШДА ХАРОРАТ ВА НАМЛИКНИ ҚўЛЛАШ ОРҚАЛИ РАФИНАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИНИ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ	677
Саидов Абди Норқобилов А, Ибрагимов Қ, Қурбонов М МОЙЛАРНИ РАФИНАЦИЯЛАШДА ИШҚОРИЙ	680

ISHSIZLIK, UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI

Muxamedov Sulaymon

Buxoro davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrası

katta o'qituvchisi(Phd) Giyazova N.B.

"Iqtisodiyot va turizm" fakulteti

3-1 Iqt-20 guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqola ishsizlik tushunchasi , ishsizlik turlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Maqola, shuningdek, mehnat bozoridagi talab va taklif, ishsizlikka oid ayrim holatlar va ularga qo'llanilgan yechimlar, hozirgi paytda sodir bo'layotgan ishsizlikning sabablari va ularni bartaraf etishga yondashilgan yechimlarni bayon etadi.*

Tayanch so'zlar: *ishsizlik , talab va taklif , investitsiya , iqtisodiy o'sish , inflatsiya, mehnat bozori.*

Ishsizlik bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi iqtisodiy hayotda Ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi, ishchi kuchi kam mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; iqtisodiyot rivojlanishi bilann malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik bozorda mehnat taklifining unga bo'lgan talabdan ortib ketishi natijasida ishlashga qobiliyati va ishtiyoqi bor kishilarning bir qismini ish topa olmay bekor qolishidir .Ishsizlik mehnat bozoridagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ishsizlikni ham talab, ham taklif yuzaga keltiradi. Ishsizlik o'zining kelib chiqish sabablari va davomiyligiga ko'ra turli shakllarga ega bo'ladi.

1. Friksion ishsizlik — bu mehnatga layoqatli kishilarning ish o'rnini almashtirishi munosabati bilan vaqtincha bekor yurishi. Mehnat bozorida

ishni muqobil tanlash erkinligi bor. Bu ish kuchini harakatchan qiladi. Kishilar o'ziga yoqmagani ishdan ketib, o'ziga ma'qul ishni tanlab oladilar.

2. Tarkibiy (strukturaviy) ishsizlik — bu ishlab chiqarishda tarkibiy siljishlar tufayli paydo bo'ladigan ishsizlik. Ehtiyoj yuksalib borishi bilan ayrim tarmoqlar bunga javob bermay qo'yadi.

3. Mavsumiy ishsizlik. Bu ish mavsumi tugagach oldin ishlab turganlarning bekor qolishidir. Bu mavsumiy ishlab chiqarishga, masalan qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm, yozgi yoki qishki dam olish sohaslariga xos bo'ladi.

4. Yashirin ishsizlik. Bu rasman ish bilan band bo'laturib qisman ishlaydiganlar, ya'ni qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasida band bo'lganlar, o'z ixtiyoridan qat'iy nazar kam haq to'lanadigan yoki umuman haq berilmaydigan ma'lum muhlatdagi mehnat ta'tiliga chiqarilganlardan iborat bo'ladi.

5. Siklli ishsizlik. Bu ishlab chiqarish krizisga yo'liqqan kezlarda mehnatga umumiy talabning qisqarishi natijasida ishsiz qolishni bildiradi. Bu ishsizlik uning boshqa shakllaridan farqliroq umumiy va ommaviy bo'ladi, ya'ni ishsizlar ko'pchilik bo'ladi.

Rivojlanmagan mehnat bozorining muammolarini hal qilish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ishlar mavjud. Ushbu vazifalarni hal qilish orqali hukumat ishchilar, korxonalar va butun iqtisodiyotga foyda keltiradigan yanada samarali mehnat bozorini yaratishga yordam berishi mumkin. Bularga quyidagilar kiritishimiz mumkin:

Ta'limga sarmoya kiritish: hukumat ishchilarga jahon iqtisodiyotida raqobatlasha oladigan malakalarni rivojlantirishga yordam berish uchun ta'lim va o'qitish dasturlariga sarmoya kiritishi kerak.

Infratuzilmaga sarmoya kiritish: hukumat korxonalar faoliyatiga yordam berish va ishchilarning ish topishini osonlashtirish uchun yo'llar, transport va aloqa tizimlariga sarmoya kiritishi kerak.

Hukumat siyosatini isloh qilish: hukumat iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishga to'sqinlik qiluvchi siyosatni qilishi kerak.

Mehnat qonunchiligini tadbiq etish: hukumat ishchilarni eksplotatsiyadan himoya qilish va ularga nisbatan adolatli munosabtda bo'lishni ta'minalsh uchun optimal mehnat qonunlarini qo'llashi kerak. Umumiy holatda texnologik rivojlanishni ishsizlik darajasiga ta'sirini, shu davrgacha bo'lgan sanoat rivojlanishida ham ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatda ishsizlik darajasi past bo'lib, ish o'rinlari ish qidiruvchilar uchun mavjud, va ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda yetarli ishchilar bor. Markaziy Bankning asosiy vazifasi iqtisodiyotni barqaror ushlab turish hisoblanadi. Bu jarayonda, Markaziy Bank Foiz stavkasini o'rta me'yorda

saqlab turadi, bu kredit va pul massasini barqaror holatda nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Barqaror o'sish, past inflyatsiya va ishsizlik darajalari iqtisodiy o'sishga yaxshi muhit olib kelishda yordam beradi. Bu tadbirkorlik qilish muhitini yaxshilaydi, va bu ko'rinishdagi iqtisodiy jarayon ko'proq investitsiyaning oqib kelishi, bizneslarning o'sish va kengayishga intilishi va iste'molchi xarajatining ko'payishiga olib keladi (Investitsiya* – iqtisodiy va faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy manfaatlar va ularga bo'lgan huquqlar). Shu paytda, iqtisodiyotda miqdoriy yengillashtirish tamoyili qo'llab quvvatlanadi va Markaziy bank iqtisodiyotni stimulatsiya uchun iqtisodiy kengaytiruvchi pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ya'ni foiz stavkasini pasaytirishni qo'llaydi va bu bo'lsa ko'plab bizneslar ko'proq past foiz stavkasida kredit olib kengayishda va odamlar ko'proq kredit olib xarajat qilishiga rag'bat olib keladi. Bundan tashqari mamlakatda iqtisodiy o'sishni yanada tezlashtirish uchun kengaytiruvchi soliq siyosati qo'llaniladi, bunga soliq tushumlarini kamaytirish orqali erishiladi. Natijada iqtisodiyot gullab yashnashi, ya'ni iqtisodiy o'sish kuzatiladi, va iste'molchi xarajati oshganligi natijasida, tovarlarga talabning ortishi kuzatiladi, qaysiki kompaniyalar kengayishiga rag'batlantiradi va shu bilan birga ko'proq ishlab chiqarishga bo'lgan taklif va ishchilarga bo'lgan talab o'sib boraveradi. Har bir narsaning chegarasi bo'lganidek, bu tarzda o'sishning ham chegarasi bor. O'sish paytidagi kuchli optimizm haddan tashqari investitsiyalarning ko'payib ketishi va investorlarda spekulyativ xulq-atvorni shakllantiradi. Bizneslar bo'lsa ko'proq foydalanib qolish istagi natijasida tezda o'sib va kengayib ketishlari mumkin. Iqtisodiy o'sish sikli oxirlarida mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning ko'payib ketishi va taklif cheklanganligidan, talab inflatsiyasi yuzaga keladi. Bu iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi va aynan shu muammoni bartaraf qilish uchun iqtisodiy keskinlashtirish tamoyili qo'llaniladi. Bunda, pul-kredit siyosatiga qarshi siyosat, ya'ni foiz stavkalarini ko'tarish qo'llaniladi. Aynan shu siyosat, iqtisodiyotni biroz o'z oqimiga qaytarishga yordam beradi, qaysiki, endi bizneslar va iste'molchilar foiz stavkalarini to'lash evaziga olishgan mavjud kreditlariga ko'proq foiz to'lovini to'lashlariga to'g'ri keladi. Bu hamma uchun kredit olishga bo'lgan rag'batni pasaytiradi. Natijada, iste'molchi xarajati va mahsulotlarga bo'lgan talab kamayadi. Foiz stavkalar oshishi va talabning kamayishi bizneslarga rivojlanishdan to'xtab, ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqarishni kamaytirishlariga olib keladi, natijada bizneslar ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va ishchilarni qisqartirish yo'llarini ko'rib chiqishadi.

Ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik muammosi, yuqori foiz stavkasi va mavjud inflyatsiya iqtisodiyotni inqirozga olib boradi. Bunday iqtisodiy

pasayish iqtisodiyotga pessimizmni yoki kelajakka ishonchsizlikni shakllantiradi va bu investitsion holatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu paytda, mahsulotlar va aktivlar narxi pasayishga olib keluvchi bozor o'zgarishi yuzaga keladi. Talab va taklif ortiqchalik holatidan muvozanatlashtirilgan holatga kela boshlaydi. Keyinchalik mavjud inqiroz depressiya (yoki, iqtisodiy inqiroz) ga yuz tutmasligi, ishizlikni oldini olish va qayta rivojlanish uchun iqtisodiyotda kengaytiruvchi pul-kredit va soliq siyosatini qo'llab-quvvatlaydigan miqdoriy yengillashtirish tamoyili qo'llaniladi. Bunda davlat xarajatlarini ko'paytiradi, soliq yuklamalarini kamaytirishga harakat qiladi va foiz stavkasini pasaytiradi. Bu jarayon yana iqtisodiy o'sish, bandlikning yuqori darajasiga, va so'ngra, iqtisodiy pasayish, ishizlikni oshishi tarzida harakatlanadi. Iqtisodiyotning bunday sikli o'sish, inflyatsiya, pasayish, ishsizlik, inqiroz kabi vaziyatlarni boshidan o'tkazadigan dinamik jarayon hisoblanadi. Ya'ni, bu iqtisodiy sikl doimiy tarzda bir xil ko'rinishda harakat qilmaydi, odamlarning jarayonga bo'lgan ta'siri kutilgandan boshqacha ham bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida, aholining doimiy ravishda yaxshi ta'minlangan maosh bilan band bo'lishi iqtisodiy rivojlanishni, yaxshi yashash tarzini va farovon hayotni ta'minlaydi. Ammo, mamlakatda yaxshi rivojlantirilmagan tizim, jumladan, aholini yaxshi malaka bilan ta'minlash, ularga mos ish o'rinlarini topib berish tizimlari, aholining bandlik darajasiga salbiy ta'sir etadi. Bu esa, aholining ishlashga rag'batini so'ndirishi, yaxshi mahoratga ega bo'lmagan aholi yaxshi ish bilan ta'minlanmasligi va har qanday tashqi muhitdan kelgan raqobatda yutqazishga majbur bo'ladi. O'z-o'zidan mehnat resursining mamlakatdan tashqari chiqishi, inson kapitalining ketib qolishi kuzatiladi. Bu jarayon uchun Mehnat birjasini rivojlantirish, mahorat va malaka o'rgata oladigan xususiy sektorlarni joriy qilish talab etiladi. Mamlakat xarajatlarining bir qismi shu sektorlarga yo'naltiriladi. Bunday tizimning joriy etilishi, ishlash talabida bo'lgan malakali aholini hech birini ishsiz qoldirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).

5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).

6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).

7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.

8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).